

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhhammadov, A.A.Ergashev

Alohida ta'limga ehtiyoji bor bo'lgan o'quvchilarga ta'lim- tarbiya berishni takomillashtirish omillari 7

J.E.Tursunov

O'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini shakllantirishda fanlararo bog'lanish..... 12

FALSAFA, SIYOSAT

N.S.Normatov, Z.S.Jumanov

Bemorlarning huquqlarini amalga oshirish bilan bog'liq tibbiy xizmatlarda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektdan foydalanish istiqbollari..... 18

M. B.Xudaybergenova

Oliy ta'lim muassasalari talabalari orasida mutolaa madaniyatini shakllantirish: joriy muammolar va yechimlar tadqiqoti 26

TARIHX

M.H.Isamiddinov, N. Sh.Kambarov

Fag'onaning ilk bronza davri jamoalari 30

O.V.Mahmudov

«O'rta asr Yevropa tarjima markazlari» tushunchasi va uning ilmiy iste'moliga oid..... 36

N.Sh.Kambarov, I.S.Xakimova, A.R.Poziljonov

Jaliltepa yodgorligining Farg'ona vodiysi qadimgi davri madaniyatlaridagi o'rni 45

D.A.Aytimova

Qoraqalpog'istonda dastlabki kutubxonalarining shakllanishi va rivojlanish tarixidan 49

B.M.Abdullayev, N.Sh.Kambarov, A.R.Poziljonov

Andijon viloyatidagi Xonobod-1 yodgorligida ikkinchi mavsum dala tadqiqot natijalari 54

Sh.T.Quldashev

“Tarixi shavqiy” asari: topilishi va ilmiy tahlil 66

Q.Sulaymonov, D.Madaminov

Yangi bilimlarni o'zlashtirishda tez o'qishning ahamiyati 72

Z.N.Xatamova

Qo'qon xonligi moliyaviy tizimiga elchilik masalalarining ta'siri: Xudoyorxonzodaning “Anjum at-tavorix” asari asosida 76

I.M.Burxonov

Qo'qon xonligi tarixini o'rganishda Asomiddin O'rinboyev ilmiy tadqiqotlarini o'rganilganlik darajasi 84

A.N.Maxmudova

R.X.Sulaymonov tadqiqotlarida qadimgi Sug'd moddiy madaniyati muammolari 88

A.Sharofiddinov, D.Q.Mukarramov

Toshkent yeparxiyasiga boshchilik qilgan ruhoniylar faoliyati tahlili 91

D.A.Ismoilova

Turkiston o'lkasida kon-metallurgiya tarixidan (XIX asr oxiri - XX asr boshlari). 96

E.L.Gasanov

Ganja shahrini ko'chish tarixining tadqiqi haqida 101

ADABIYOTSHUNOSLIK

A.G.Sabirdinov

Mirtemirning she'riy mahorati xususida 106

Z.A.Rahimov

Tarixiy romanda syujet va xarakter 110

F.Isomiddinov

Irim-sirimlar 115

D.M.Xoshimova

«Boburnoma»dagi shaxs va xarakter munosabatini ifodalovchi qiyosiy vositalarning tarjimada berilishi 120

OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARI ORASIDA MUTOLAA MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH: JORIY MUAMMOLAR VA YECHIMLAR TADQIQOTI**ФОРМИРОВАНИЕ КУЛЬТУРЫ ЧТЕНИЯ СРЕДИ СТУДЕНТОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ: ТЕКУЩИЕ ПРОБЛЕМЫ И ИССЛЕДОВАНИЯ****FORMATION OF CULTURE OF READING AMONG STUDENTS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS: CURRENT PROBLEMS AND RESEARCH****Xudaybergenova Marjan Baltabayevna¹****¹Xudaybergenova Marjan Baltabayevna**

– O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali "Madaniyat va kutubxona faoliyati" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada Oliy ta'lim muassasalari talabarlari orasida mutolaa madaniyatini shakllantirishdagi mavjud muammolar tahlil qilingan. OTMdagi axborot-resurs markazlarining talabarlari orasida mutolaa madaniyatining ayrim muammolari o'rganilib, o'larning yechimlariga oid taklif va tavsiyalar bildirilgan. OTMda talabalarining faqat kutubxon talaba sifatida emas, kitob mutolaachisi va ilmiy-tadqiqotchi etib tarbiyalash ishlarini amalga oshirish bo'yicha zarurligi ta'kidlangan.

Аннотация

В статье проанализировали существующие проблемы в формировании культуры чтения среди студентов высших учебных заведений. Некоторые проблемы университетских информационно-ресурсных центров изучаются среди студентов, были предложены рекомендации по их решению. Подчеркивается, что студенты являются не просто студентами библиотеки, но читателями и исследователями.

Abstract

The article has analyzed the existing problems in the formation of culture of reading among students of higher education institutions. Some problems of the university's information-resource centers are studied among students and made suggestions and recommendations on the solutions. The university emphasizes that students are not just as a library student, but also readers and researchers.

Kalit so'zlar: mutolaa madaniyati, ma'naviy-ma'rifiy jarayon, axborot-resurs markazlari, kutubxona, raqamlashtirish, oliy ta'lim muassasasi, talabalar.

Ключевые слова: чтение культура, духовный и образовательный процесс, информационные и ресурсные центры, библиотека, оцифровка, высшее образование, студенты.

Key words: reading culture, spiritual and educational process, information and resource centers, library, digitization, higher education institution, students.

KIRISH

Oliy ta'lim muassasalari talabarlari orasida mutolaa madaniyatini shakllantirishda, avvalo, ta'lim muassasalardagi Axborot-resurs markazlarining o'rni va roli hal qiluvchi omil hisoblanadi. Talabalar uchun ARMda qulay shart-sharoitlar yaratish, sohani eskicha ishlash tizimidan chiqarish, mutolaa madaniyatiga innovatsion yondashish dolzarb ahamiyat kasb etuvchi muammolardan biri. Ilmiy-tadqiqot natijalariga ko'ra: 2021-2022-o'quv yilida respublikamiz bo'yicha faoliyat yuritayotgan 105 ta davlat oliy ta'lim muassasalarining 102 tasida axborot-resurs markazlari faoliyati yo'lga qo'yilgan. Ma'lumot o'rnida, oliy ta'lim muassasalari axborot-resurs markazlari Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2006-yil 29-dekabrda "Axborot-resurs markazlari faoliyatini tashkil to'g'risida"gi buyrug'i bilan tasdiqlangan namunaviy Nizom asosida faoliyat yuritmoqda. Chunonchi, oliy ta'lim muassasalari axborot-resurs markazlarida 5 ta bo'lim faoliyati yo'lga qo'yilgan:

- 1) ilmiy-uslubiy va axborot-ma'lumot bo'limi;
- 2) axborot-kutubxona resurslarini butlash, kataloglashtirish va tizimlashtirish bo'limi;
- 3) axborot-kutubxona resurslari bilan xizmat ko'rsatish bo'limi;
- 4) elektron axborot-resurslari bo'limi;
- 5) xorijiy axborot-kutubxona resurslari bilan ishlash bo'limi[1:77].

To'g'ri, ARMning faoliyat doirasida majburan Oliy ta'lim muassasalari talabarlari orasida mutolaa madaniyatini shakllantirish nazarda tutilmagan. Ammo, talabalar orasida mutolaa madaniyatini shakllantirishning bosh pragmatik faoliyatini ARM faoliyatida ko'rishimiz mumkin. Bu nafaqat axborot-kutubxona faoliyatiga oid ishlovchi xodimlar, balkim barcha OTMda ta'lim-tarbiya jarayoniga ma'sullar uchun dahldor.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mazkur maqolani yozishda sohaga oid olim va tadqiqotchilarning ilmiy ishlaridan statistik va tahliliy manbalar sifatida foydalanildi. Jumladan, professor A.Umarovning “Mutolaa madaniyati: shaxs, jamiyat, taraqqiyot”, I.Yuldashev va O'.Nosirovning “Kutubxona – axborot xizmati: nazariyasi va amaliyoti”, M.Matmurodovning “Kitob va mutolaa madaniyati”, A.Abdulazizovning “Mutolaa madaniyatini shakllantirishning sotsiologik tahlili” kitoblaridan va A.Eshmurodov, B.Zaripov, Sh.Yoqubovning ilmiy maqolalari o'rganilib, tahlil qilindi.

NATIJA VA MUHOKAMA

So'nggi yillarda Yangi O'zbekistonda ta'lim sohasini rivojlantirish, Uchinchi Renessansni yaratish, bu jarayonda sohani tubdan isloh qilish bo'yicha yangi tizim shakllandi. Ta'lim sohasida jahon ta'lim standartlariga faol integratsiyalashuvini ta'minlash uchun oliy ta'lim muassasalarining ta'lim sifatini oshirish va innovatsion rivojlantirishga qaratilgan ishlar amalga oshirildi. ARMning faoliyati tanqidiy-tahliliy nuqtaiy nazardan ko'rib chiqildi. ARMdagi kadrlar salohiyatini yuksaltirish uchun xalqaro hamkorliklar yo'lga qo'yildi. Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining ish bilan ta'minlanishi real statistik tahlillar bilan ko'rsatila boshlandi. OTMning shaffoflik indeksleri shakllantirildi. Bu kabi islohotlar binobarida ma'nan yetuk kadrlar tayyorlash – bosh mezon sanaladi.

Ta'lim sifatini kafolatlovchi yana bir sinalgan yo'l, bu – kitobxonlik. Davlatimiz rahbari bu masalaga alohida e'tibor qaratdi, kitobxonlikni oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ham belgilandi. Ammo ishlar oxirigacha yetib bormayapti. Mavjud kutubxonalarimizda xizmat ko'rsatish sifati talab darajasida emas. Kitob, bu – madaniyat, ma'rifat, ilm. Jamiyatda insonning butun umr ilm olishi uchun barcha sharoitni yaratib berish, ma'rifatli davlat siyosatini yuritish, bola ong-u shuuriga go'dakligidanoq ziyo olib kirish yordamida aql “mash'ala”larini yoqish orqali yuksak marralarga erishish mumkin. Bu juda mashaqqatli, ammo sharaflil yo'l, uzoq vaqt sarflanadigan vazifa, og'ir mehnat, taraqqiyot sharti, zamon talabidir[2:43].

Oliy ta'lim muassasalari talabalari orasida mutolaa madaniyatini shakllantirish ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy hodisadir. Mutolaa madaniyatidagi joriy muammolarning biri jamiyatda mutolaa madaniyatini taraqqiy ettirish desak mubolag'a bo'lmaydi. Jamiyatda mutolaa madaniyatining tarkib topishi, shakllanishi va rivojlanishida ham umumiy madaniyatning, ya'ni aholining yalpi ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy tayyorgarligi yuksalganlik darajasining o'rni va roli beqiyosdir. Shunday qilib, qayd etish joizki, mutolaa madaniyati umumiy madaniyatning hosilaviy ko'rinishidir. Mutolaa madaniyati esa, o'z navbatida kitobga qiziqish, odamlarning adabiyotlar bilan kengroq tanishish rag'bati, kitob va u bilan ishlash haqidagi maxsus bilimlarga ega bo'lishni, shuningdek, axborot manbalaridan to'liq foydalanishga yordam beruvchi ko'nikma va malakaga ega bo'lishni taqozo etadi. Mutolaa madaniyati kishining manbani to'laqonli tushunishi, undan estetik zavq olishi, muallif fikri va g'oyasini anglashi hamda uni baholay olishi kabi xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlaydi. Bundan tashqari, kitob va kutubxonadan foydalanish, o'zini qiziqtirgan masalalarga doir manbalarni topish va undan o'qishga, ishda, hayotda foydalanish yo'llarini o'rgatadi. Kitobni tanlash, uni tez o'qish, saqlash, shaxsiy kutubxona tashkil etish, o'qilgan kitoblarni boshqalarga tavsiya eta olish ham mutolaa madaniyatiga kiradi. Demak, mutolaa madaniyati insonni bevosita amaliyotga kirishish, hayot bilan o'yg'unlashish, ma'naviy foyda olishga yo'naltiradi. “Mutolaa” so'zi aslida arabcha o'qish degan ma'noga ega bo'lsa-da, bizningcha, bugungi kunda u kitob o'qishdan ko'ra kengroq tushunchani anglatmoqda. Mutolaa madaniyati ijtimoiy guruhlar, uyushmalar va alohida individlarning umumiy ma'lumot olishga yo'naltirilgan jarayon, hulk-atvor va faoliyatlari mazmuni hamda tarkibiy tizimlarida yuz beruvchi o'zgarishlar majmuyini ifodalovchi bilimlar, me'yorlar, ijtimoiy hodisalar va boshqa atribug'lardir[3:32].

Demak, o'z-o'zidan ma'lum bo'ladiki, OTM talabalarini o'quvchi emas, mutolaachi qilib, o'larni kitob o'qishga, gazeta-jurnallarni kuzatib borish, o'qish va tahlil qilishga o'rgatishimiz ijtimoiy dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Mutolaa madaniyati ta'lim jarayonida shakllanadi va rivojlanadi. Ta'lim sohasidagi islohotlar esa mutolaa madaniyati bilan uzviy bog'liq bo'lishi lozim. ARM talaba-yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazadigan yagona maskan desak ham mubolag'a bo'lmaydi. Oliy ta'lim tizimida talabalarga qulayliklar yaratish va professor-o'qituvchilarga har tomonlama qulaylik yaratish maqsadida yangi O'zbekistonning ta'lim jarayoniga kredit-modul tizimida ishlash amaliyotga tatbiq etildi. 2021-yildan pedagogik ta'limning 6 ta yo'nalishi bo'yicha o'qish muddati 3-yil qilib belgilanadi. Bu islohotlar haqida Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoev: “bu ishlarni boshqa yo'nalishlarda ham davom ettiramiz. Oliy o'quv yurtlariga bosqichma-bosqich akademik va moliyaviy mustaqillik beriladi. Joriy yilda ularning 10 tasi o'zini o'zi moliyaviy ta'minlashga o'tadi[4:17].

Bu degani ARMdagi kitob fondini erkin tanshlash va ko'paytirish degani. Biz 2030-yilga qadar maktab, litsey va kollej bitiruvchilarini oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini 50 foizga yetkazishni reja qilganmiz va bunga albatta erishamiz [5:52]. Oliy ta'lim muassasalariga jami 146 ming 500 nafar yoki 2016-yilga nisbatan 2 barobar ko'p talaba o'qishga qabul qilindi[6:9].

Buning natijasida esa, sohaga mutolaa uchun zarur bo'lgan barcha imkoniyatlarni yaratishdek vazifalar qo'yiladi.

Olimlarning tadqiqot natijalariga ko'ra endilikda sohani raqamlashtirishdagi muammolar yuzaga keladi. Virtual kutubxonalarga talab oshadi. Talabalar sonining keskin ortishi axborotga bo'lgan ehtiyojni yuqori pag'onaga olib chiqadi.

Talabalarga xizmat ko'rsatish onlayn, sifatli va tezkor tarzda amalga oshirila boshlaydi. O'zbekistonda bu kabi ishlar Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tadbiiq etish markazi tomonidan amalga oshiriladi. Yana bir muhim yo'nalishimiz – sohani raqamlashtirish. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan samarali foydalanish barcha sohada bo'lgani kabi oliy ta'lim tizimi, jumladan, Markaz faoliyatida ham muhim vazifalardan biridir. Hozirgi kunda quyidagi yo'nalishlarda raqamlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda:

“Elektron kutubxona” tizimini yaratish. Bunda barcha oliy ta'lim muassasalarida mavjud 4 milliondan ortiq adabiyotlar to'liq elektron shaklga o'tkazilib, yagona platformaga joylanadi. Har bir professor-o'qituvchi va talabaga undan foydalanish imkoniyati yaratiladi. Respublika oliy ta'lim muassasalarini o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur vazifalar ijrosini ta'minlashda markaz alohida o'rin egallaydi. Chunki oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan o'quv adabiyotlari hamda tarjima qilinib, o'quv amaliyotiga joriy etilayotgan xorij adabiyotlarini ekspertizadan o'tkazish ishlarini tashkil qilish, bu jarayonni doimiy tahlil qilib, takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish Markaz zimmasiga yuklatilgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'nggi 5- yilda 11 990 nomdagi yangi avlod o'quv adabiyotlari yaratildi hamda nashr etishga ruxsat berildi [7:16]. Professor-o'qituvchilar tomonidan ko'plab adabiyotlar yaratilishi mumkin. Ammo uni talabalarga o'qitish, mazkur darsliklarga qiziqtirish, targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish, adabiyotlarga bo'lgan mutolaa madaniyatini yuqori darajada tashkil qilish orqali OTMgi ba'zi muammolarga yechim topish mumkin. Ya'ni talabalar ilmiy-tadqiqot ishlarida o'sha ta'lim muassasi professor-o'qituvchilarning tadqiqotlarini tahlil eta olishni o'rganadilar.

Ilm bilan mustaqil shug'ullanishni o'rganadi. Mutolaaning oddiy o'qishdan farqi ham shu aslida. Kitob mutolaasi haqida Gyote shunday fikr bildiradi:

a) nihoyatda mashaqqatli (darhaqiqat, kitob mutolaasi kishidan qunt va sabr, kuchli xotira va yuksak fahm talab etadi);

b) beqiyos sharaflil (kitob mutolaasi tufayli hayot qonuniyatlarini chuqur anglay borgan, bilim doirasi kengayib, tushunchasi, dunyoqarashi o'sgan, ma'naviy jihatdan yuksalgan);

v) huzurbaxsh (aks holda, kitob mutolaasi bilan muttasil shug'ullanmagan bo'lardi)[8:6].

Inson hayoti davomida turli manbalar – kitoblar (badiiy, ilmiy, o'quv, ensiklopedik va boshqa), ommaviy axborot vositalari (gazeta, jurnal, televideniye, radio va shu kabilari), zamonaviy axborot texnologiyalari (Internet, elektron kitob, elektron gazeta, jurnal-qo'llanma va hokazolar), subyekt bilan bevosita muloqotga kirishuvchi shaxslar (oila a'zolari, ish yoki o'qish joydagilar, qo'ni-qo'shnilar va boshqa insonlar) orqali ega bo'linadigan turli yo'nalish va shakldagi umumiy ma'lumotlarni bir-biridan farqlash lozim bo'ladi[9:8]. Mutolaaning doimiyliigi va uzluksizliigi kishilarning bo'sh vaqti va kasbiy faoliyatiga bog'liq ravishda o'zgarib turadi.

Shuning uchun ham, mutolaa xossalariiga bog'liq bo'lgan asosiy farq qiluvchi belgini aniqlash zarurdir. Bunday farq qiluvchi belgi – mutolaa shaxsning ma'naviy ehtiyojarini qondiruvchi faoliyatiga aylanishidir. Ushbu faoliyat jarayonida subyektning ongida uning nashr mahsuloti bilan o'zaro munosabatlarini tartibga soluvchi mutolaa psixologiyasi shakllanadi. Shunga ko'ra, foydalanuvchi – o'ziga xos mutolaa psixologiyasiga ega bo'lgan, ayni paytda muallif, nashr mahsuloti, uni tarqatish va targ'ib qilish tomonidan ta'sir ko'rsatiladigan, o'zining ma'naviy ehtiyojariga muvofiq doimiy mutolaa bilan shug'ullanuvchi ijtimoiy subyektdir. Bilim manbai sifatida mutolaaning samaradorliigi insonning shunchaki o'qishiga emas, uning qanday o'qishiga qarab belgilanadi. Shuning uchun ham, mutolaa tafakkurga, mazmunning umumlashtirilishiga va taqqoslashga asoslanishi kerak. Mutolaa madaniyatining muhim ko'rsatgichlaridan yana biri mutolaaning shunchaki qiziquvchanlikdan tubdan farqlanib, uning bilish va ma'rifiy dunyoqarashlik motivining rivojlanishidir[10:28]. Oliy ta'lim muassasalari talabalari orasida mutolaa madaniyatini shakllantirishdagi yana bir muammo bu pedagogik tashkiliy ishlarning amalga oshirilmasliigi hisoblanadi. Mazkur muammoga yechimning tadqiqotlari ko'pincha pedagogning ilmiy salohiyatiga bog'liq bo'ladi. Ta'lim jarayonini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish o'quvchilarda mutolaa madaniyatini shakllantirishning tashkiliy pedagogik jihatlarini takomillashtirish bilan bog'liqdir.

XULOSA

Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkiliy-pedagogik jihatdan tizimli tahlil etish, o'z navbatida, bu jarayonning belgilarini o'rganishni talab etadi. Ana shu tizimning markaziy qismlaridan biri ta'lim muassasasidagi ARMning axborot fondidir. Bugungi ARMlarning axborot fondini asosan kitoblar tashkil

FALSAFA-SIYOSAT

etmoqda. Kutubxona fondini to'g'ri tashkil etish va muntazam yangilab borish ham sohadagi muammolardan biri. ARMdagi kutubxona fondi qanchalik ko'p va yangilab borish ko'rsatgichlari yuqori bo'lsa, bu OTMdagi ilmiy-tadqiqot ishlarining samaradorligiga va mutolaa madaniyatining yuqorilashiga ham xizmat qiladi. ARM fondining asosini tashkil etuvchi elementlardan biri – kitoblar ta'lim muassasasi kutubxonasining asosiy ish mazmunini bajarishga xizmat qiluvchi nashrlardir. Ularga ta'lim muassasasining o'quv dasturi bo'yicha va sinfdan tashqari o'rganilishi shart bo'lgan badiiy asarlar va dasturga kiritilmagan klassiklar hamda mashhur zamonaviy yozuvchilarning asarlarini kiritish mumkin. Ushbu adabiyotlar o'smir-yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilish hamda ularga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishga ko'maklashadi. Shu bilan bir qatorda, ijtimoiy-siyosiy, tabiatshunoslikka oid ilmiy-ommabop adabiyotlar, texnika-qishloq xo'jaligi, tibbiyot va sog'likni saqlash, san'at, falsafa, jismoniy tarbiya va sport, adabiyotshunoslik, pedagogika kabi sohalar bo'yicha uslubiy adabiyotlar, gazeta-jurnallar ham ARM fondlaridan joy olishi kerak.

Shuningdek, ta'lim muassasasi qoshidagi ARMning kitob fondiga o'quvchilarning o'quv vazifalarini bajarishi hamda pedagoglarning darsga tayyorgarlik ko'rishlari uchun zarur bo'lgan lug'atlar, ma'lumotnomalar, ensiklopedik asarlar va turli bibliografik nashrlar kiritilishi zarur. Albatta, o'quv dasturiga kirmagan adabiyotlar, ya'ni ma'lumotnomalar, ensiklopediyalar kamroq nusxada olinadi. Chunki ular uchun mablag ajratish imkoniyati muayyan darajada cheklanganligini ham e'tibordan soqit qilmaslik zarur[11:97]. Oliy ta'lim muassasalari talabalari orasida mutolaa madaniyatini shakllantirishdagi mavjud muammolarni tahlil qilsak, bu ko'pincha moddiy jihatlardan bog'liq bo'ladi. Lekin, OTMdagi axborot-resurs markazlarining fondini tarixiy va zamonaviy kitoblar, innovatsion qurilmalar bilan to'ldirish ishlari doimiy tarzda amalga oshirilib kelimoqda. Bugungi kunda mazkur mavzu bo'yicha muammo talabalarning faqat kutubxon talaba bo'lishi emas, kitob mutolaachi va o'qigan gazeta-jurnallar, kitoblarini tahlil qila oladigan ma'nan yetuk olimlar etib tarbiyalash kun tartibidagi dolzarb muammo bo'lmoqda. Shunday ekan, mazkur muammolarga yechim topishda barchamiz tashabbuskor va islohotchi bo'lishimiz zarur. Talabalarning mutolaa madaniyati – ularning kelajakdagi ma'rifatchi, ziyoli olim bo'lishining kalitidir.

ADABIYOTLAR

1. Eshmurodov A. Oliy ta'lim muassasalarida axborot-resurs markazlari faoliyati to'g'ri yo'lga qo'yilganmi? //jur. O'zbekistonda oliy ta'lim №2. Toshkent.: Sano-standart. 2022. 99-b. (Eshmurodov A. Is the activity of information resource centers in higher education institutions properly established? //jur. Higher education in Uzbekistan №2. Tashkent: Sano-standart. 2022. p. 99).
2. Zaripov B. Ta'lim sifatiga hamma birdek ma'sul. //jur. O'zbekistonda oliy ta'lim №2. Toshkent.: Sano-standart. 2022 102 b. (Zaripov B. Everyone is equally responsible for the quality of education. //jur. Higher education in Uzbekistan №2. Tashkent.: Sano-standart. 2022 102 p.)
3. Umarov A. Mutolaa madaniyati: shaxs, jamiyat, taraqqiyot. – Toshkent.: Fan. 2004. 190 b. (Umarov A. Reading culture: individual, society, development. Tashkent: Science. 2004. 190 p.)
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2021-yil 24-yanvar. – T.: Tasvir, 2020. – 17 b. (Address of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis. January 24, 2021. Tashkent: Tasvir, 2020. 17 p.)
5. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. – T.: O'qituvchi, 2021. 52-b. (New Uzbekistan is becoming a country of democratic changes, broad opportunities and practical work. Tashkent: Teacher, 2021. p. 52.)
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2021-yil 24-yanvar. Toshkent: Tasvir nashriyoti uyi, 2020. – 9-b. (Address of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis. January 24, 2021. Tashkent: Tasvir, 2020. 17 p.)
7. Yoqubov SH. Tizim taraqqiyotini tadqiqotlar ta'minlaydi. //jur. O'zbekistonda oliy ta'lim №2. Toshkent: Sano-standart. 2022. (Yakubov Sh. System development is supported by research. //jur. Higher education in Uzbekistan №2. Tashkent: Sano-standart. 2022).
8. Matmurodova M. Kitob va mutolaa madaniyati: Metodik – bibliogr. -Toshkent.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. 50 b. (Matmurodova M. Book and reading culture: Methodological - bibliogr. Tashkent: Publishing house of the National Library of Uzbekistan named after Alisher Navoi, 2010. 50 p.)
9. O'she yerda. (There.)
10. Yuldashev I., Nosirov O'. Kutubxona – axborot xizmati: nazariyasi va amaliyoti. Toshkent.: Fan va ta'lim. 2021. 396 b. (Yuldashev I., Nosirov U. Library - information service: theory and practice. Tashkent.: Science and education. 2021. 396 p.)
11. Abdulazizov A. Mutolaa madaniyatini shakllantirishning sotsiologik tahlili. Toshkent 2016. Navro'z. 173 b. (Abdulazizov A. Sociological analysis of formation of reading culture. Tashkent 2016. Nowruz. 173 p.)